



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

14.02.2022 yil

21 um-son

Xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirish haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2021-yil 31-avgustdagi 1-mh va 23-mh-son "Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga (ro'yxat raqami 3318, 07.09.2021-yil) asosan

BUYURAMAN:

1. Xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirish hamda davlat organlarini yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan to'ldirish maqsadida adliya vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning (ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari bundan mustasno) xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatiga va CEFR metodikasiga muvofiq amalda bo'lgan sertifikatga ega xodimlarga lavozim maoshi (yagona tarif setkasi)ga nisbatan qo'yidagi miqdorlarda qo'shimcha ustama to'lansin:

- a) B1 darajali sertifikatga 5 foiz;
- b) B2 darajali sertifikatga 10 foiz;
- s) C1 darajali sertifikatga 15 foiz;
- d) C2 darajali sertifikatga 20 foiz.

2. Kadrlar boshqarmasi (Sh.Qo'chqarov), adliya organi va muassasalari rahbarlari:

2022-yil 1-martdan boshlab ishga qabul qilish va yuqori lavozimga tayinlash uchun xorijiy tilni bilish nomzodlarga qo'yiladigan majburiy malakaviy ko'nikma sifatida belgilansin;

ehtiyojdan kelib chiqib ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarini shartnoma asosida jalb qilib, haftada kamida bir marotaba xodimlarni xorijiy tilga o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatida ko'rsatilgan sertifikatga ega xodimlarning elektron reestrini yuritishni ta'minlasin.

3. Moliya-iqtisod boshqarmasi (T.Bekbutayev), adliya organlari va muassasalari moliya-iqtisod yo'nalishi bo'yicha tarkibiy bo'linmalari mazkur buyruqning 1-bandida ko'rsatilgan qo'shimcha ustamani byudjetdan tashqari hamda ish haqi fondi doirasida byudjet mablag'lari hisobidan to'lanishini ta'minlasin.

4. Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi (A.Buriyev) ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo'linmalari e'tiboriga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A.Muxammadiyev zimmasiga yuklansin.

Adliya vaziri



R.DAVLETOV

Toshkent shahar